
XOTIN-QIZLAR MUROJAATI XAL ETILMOQDA

Toshloq tumanida xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni oldida turgan muammolarini o'z vaqtida xal etish hamda ularga huquqiy maslahatlar berish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina oila va xotin-qizlar bo'limi tomonidan xotin-qizlarning muammoli murojaatlarini o'rganish orqali ko'plab ayollarimizga ijobiy yordamlar ko'rsatilmoqda.

Tuman hokimining o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i U.Marasulova kuni-kecha tumandagi xotin-qizlarning murojaatlarini o'rganish maqsadida qabul o'tkazdi.

Qabul davomida fuqarolarning oilaviy va boshqa masalalari bo'yicha qilgan murojaatlari atroflicha o'rganildi. Unda kelib tushgan jami 24 ta murojaatdan 1 ta oila yarashtirildi, 6 ta oila to'liq bo'lmaganligi sababli ko'rilmadi, 2 ta oilaga tuman oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash komissiyasining xulosasi berildi. 15 ta marojaatlar nazoratga olinib, oilani yarashtirish uchun muxlat berildi.

2022-08-23 10:14:03